

TABIY (SCIENCE) FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Xasanova Dilnur Elbek qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Science (tabiiy) fanlarni o'qitishda foydalilaniladigan eng sara interfaol metodlar va texnalogiyalar hamda "kim oyga tez yetadi" texnalogiyasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Science (tabiiy) fan, Klaster metodi, aqliy hujum, tushuncha, jadval, baho.

Kirish

Bir qator rivojlanlangan xorijiy davlatlar ta'lim tizimida tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, kimyo, fizika) 1-6 sinflarda.

Science dasturi asosida o'qitiladi. Jahon andozalariga mos ravishda O'zbekistonda ham 2021-2022-yillardan boshlab 1-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (Science) fani joriy etildi. Science fanlari ayni vaqtida o'qitib kelinayotgan 1-2 sinflarda "Atrofimizdag'i olam", 3-4 sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4 ta alohida fanlar ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarni o'zida birlashtiradi.

Tabiiy (science) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit ajralmas bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi oshadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada PISA, TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvoffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati kengayadi.

Asosiy qism

Tabiiy fanlar—inson va uning sog'lig'ini shuningdek butun atrof muhitni: tuproqni, atmosferani, yerni, kosmosni, tabiatni hamda undagi barcha tirik va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fandir.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarining ilmiy – tabiiy dunyoqarashini shakillantirish va kengaytirish mantiqiy fikrlashga o'rgatishda har bir mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati o'z bilimi, kuchi, qobiliyatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Buning natijasida harbir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda bir qancha metodlardan foydalilanadi: "Insert", "Keys", "Aqliy hujum", "Klaster", "6×6(5×5)", "Atamalar zanjiri", "1 daqiqa", "Atamalar varag'i", "Venn diagrammasi", "BBB" texnalogiyasi va boshqa interfaol metodlar.

Mahoratli pedagog mavzu mohiyatidan, sodda yoki murakkabligidan hajmidan kelib chiqqan holda metodni to'g'ri tanlab samarali qo'llay olishi lozim.

“Klaster metodi”

Ushbu metod o'quvchilarga muommolimavzular xususida erkin, ochiq o'yash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.

“Klaster metodi” turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzulmani aniqlashni talab etadi. Bu etod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Ulardan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. “Klaster” metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surulayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtasidagi aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

“Aqliy hujum metodi”

Ushbu metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida malum ko'nikma hamda malakalar hosil qilishga rag'batlantiradi. Bu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal yechimlarni topish imkoniyati tug'uladi. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqr fikr yurutishga rag'batlantirishdan iborat.

“Kim oyga yetadi”. Ushbu interfaol jadval 1– 6 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari, sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari uchun qulay hisoblanadi.

Fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari ushbu jadvaldan bir chorak davomida, bo'lim yoki bob tugaguncha, yoki guruhlar aro, sinflararo musobaqalarda, fan oyliklarida o'z fanlariga yoki mavzulariga mos va qulay qilib foydalansalar samaraliroq bo'ladi.

Bu interfaol jadval o'quvchilarda:

- fanga bo'lgan qiziqishining ortishiga;
- mavzuni chuqr o'zlashtirishga;
- psixologik holatning ijobiy tarafga o'zgarishiga;
- o'z “men”ining rivojlanishiga;
- atrof muhutga e'tiborliroq bo'lishiga;
- guruhda ishslashga;

- o'zgalarning fikrini tinglay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etishda yordam beradi.

Natija.

Ushbu “Kim oyga tez yetadi” nomli interfol jadvalni 4–5-sinf rahbarlari bilan hamkorlikda o'quvchilarga qo'llab ko'rildi. 4 va 5-sinf o'quvchilariga jadval tanishtirilib, u haqida tushuncha beriladi. Bir chorak davomida o'quvchilarning fanlardan olgan baholari, xulqi, shaxsiy gigiyenaga va atrof-muhitga bo'lган e'tibori va boshqalar jadvaldagi katakchalarga joylahtirib boriladi. Chorak oxirida esa “Oy”ga 1,2,3 bo'lib yetib kelgan o'quvchilar (fazogirlar)ni rag'bablantrish maqsadida taqdirlash marosimi bo'lib o'tadi. Sinfda o'zlashtirishi past bo'lган o'quvchilarning fanga bo'lган qiziqishining oshishiga xulqi va muomala madaniyatining ijobiy tarafga sezilarli darajada o'zgarishiga yordam beradi.

Xulosa

So'nggi yillarda maktab ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tunshunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanilib borilishi, ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak adashmaymiz. Yangi fan sifatida joriy etilgan tabiiy (science) fanlari o'quvchilarda atrof-muhitga bo'lган qiziqishning oshishiga, tabiatdagi hodisalar va ularning o'zaro bog'liqligi haqida keng tushunchalarga ega bo'lishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D.Sharipova, D.Xodiyeva, M.Shirinov. “Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi” Toshkent, Barkamol Fayz Media nashiriyoti-2018
2. M.I.Nuriddinova “Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi” Cho'lpon nomidagi nashiriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2005.
3. T.M.Pirimatova, E.E.Begmatova “Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish”